




ACTA EDUCATION

ISSN: 3030-3141



**2025
N 1**

Acta Education

2025 2-Jild 1-son

Jurnal 2023 yilda tashkil etilgan.

Davriyligi: har chorakda.

Davriy nashrning rasmiy nomi: "Acta Education" (Ta'lim xabarleri). Jurnal Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 30.08.2023 yilda ro'yxatdan o'tkazilgan, litsenziya raqami №122187. ISSN: 3030-3141

Jurnal: ilmiy-tadqiqot, ta'lim, pedagogika, ta'lim boshqaruvi, ta'lim uslubiylati va boshqa sohalar bo'yicha ilmiy maqolalar chop qiladi.

Jurnal ta'sischisi: "TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY OF EDUCATION" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

Nashr etuvchi: Tashkent International University of Education

Xalqaro indeksi: ISSN 3030-3141 (Online).

Tahririyat telefoni: +998 (55) 512 2020(118), +998 (93) 375 5337

Pochta manzili: Tashkent International University of Education, 100207, Toshkent sh., Yashnobod tumani, Tuzel-2, Imom Buxoriy ko'chasi, 31.

Web-sayt: www.actaeducation.uz

E-mail: actaeducation@tiue.uz

© Tashkent International University of Education LLC, 2023

Acta Education

2025 - Volume 2 Issue 1

The journal was founded in 2023

Frequency: quarterly

Official name of the journal: «Acta Education». The journal was registered with the Agency for Information and Mass Communications. Licence №122187. 30.08.2023 y. ISSN: 3030-3141

Journal: publishes scientific papers in the field of research, education, pedagogy, education and training management, teaching methodology and others.

The founder of the journal: "TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY OF EDUCATION" LLC (Limited Liability Company).

Publisher: Tashkent International University of Education

International indices: ISSN 3030-3141 (Online).

Editorial phone: +998 (55) 512 2020(118), +998 (93) 375 5337

Postal address for correspondence: Tashkent International University of Education, Imam Bukhariy street 31, Tuzel-2, Yashnabad district, Tashkent 100207.

Web-site: www.actaeducation.uz

E-mail: actaeducation@tiue.uz

© Tashkent International University of Education LLC, 2023

Acta Education

2025 - Том 2 Выпуск 1

Журнал основан в 2023г.

Периодичность: ежеквартально

Официальное название журнала: «Acta Education» (Вестник образования). Журнал зарегистрирован в Агентстве информации и массовых коммуникаций. Лицензия №122187. 30.08.2023 г. ISSN: 3030-3141

Журнал: публикует научные статьи в области науки, образования, педагогики, управления образованием и обучением, методики преподавания и др.

Учредитель журнала: "TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY OF EDUCATION" LLC (Limited Liability Company).

Издатель: Tashkent International University of Education

Международный идентификатор: ISSN 3030-3141 (Online).

Телефон редакции: +998 (55) 512 2020(118), +998 (93) 375 5337

Почтовый адрес для корреспонденции: 100207 Республика Узбекистан, г. Ташкент, Яшнабадский район, Тузель-2, ул. Имама Бухари 31, Tashkent International University of Education.

Веб-сайт: www.actaeducation.uz

E-mail: actaeducation@tiue.uz

© Tashkent International University of Education LLC, 2023

ACTA EDUCATION

(2025)
Volume 2
Issue 1

TA'LIM XABARLARI

(2025)
Jild №2
1-Son

ВЕСТИК ОБРАЗОВАНИЯ

(2025)
Том №2
Выпуск №1



ACTA EDUCATION EDITORIAL BOARD

Chairman (Chief editor): Baydjanov Maksudbek Islamdjanovich – PhD in Physics and Mathematics Sciences, Associate Professor.

David Thompson – DSc in Physical and Mathematical Sciences, Professor.

Aajaz Ahmad Hajam - PhD in Commerce / Management

Sheraliev Oybek Rikhsillayevich – DSc in Economical Sciences, Professor.

Abdurakhmanov Umarbek – DSc in Physical and Mathematical Sciences, Professor.

Yusupov Maksudbek Sultanmuratovich – DSc in Physical and Mathematical Sciences, Professor.

Khalilov Umedjon Boymamatovich – DSc in Physical and Mathematical Sciences, Professor.

Razzokov Jamoliddin Inatullaevich – DSc in Chemical Sciences, Professor.

Rakhimov Rakhimbergan Yuldoshevich – DSc in Technical Sciences, Senior Researcher.

Khodjaev Nodir – PhD in Technical Sciences, Associate Professor

Yusupov Jaloliddin Rasuljonovich – PhD in Technical sciences.

Karimov Rakhmat Rakhmanovich – PhD in Philosophical Sciences, Professor.

Saidova Kamola Uskanbaevna – DSc in Philosophical Sciences. Professor.

Chay Zoya Sergeevna – PhD in Physical and Mathematical Sciences, Associate Professor.

Rakhimova Yayra Makhmudovna – PhD in Physical and Mathematical Sciences.

Rajabova Zuhra Sadullaevna – PhD in Historical Sciences, Associate Professor.

Abdullaev Nuraddin Kuranbaevich - PhD in Pedagogical Sciences

ACTA EDUCATION TAHRIRIYAT KENGASHI

Rais (Bosh muharrir): Baydjanov Maqsudbek Islamdjanovich – Fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent.

David Thompson – Fizika-matematika fanlari doktori, professor.

Aajaz Ahmad Hajam - Tijorat / Menejment fanlari bo'yicha Falsafa doktori (PhD).

Sheraliev Oybek Rixsillayevich – Iqtisod fanlari doktori, Professor.

Abdurakhmanov Umarbek – Fizika-matematika fanlari doktori, Professor.

Yusupov Maqsudbek Sultanmuratovich – Fizika-matematika fanlari doktori, professor.

Halilov Umedjon Boymamatovich – Fizika-matematika fanlari doktori, professor.

Razzoqov Jamoliddin Inatullaevich – Kimyo fanlari doktori, professor.

Raximov Raximbergan Yuldoshevich – Texnika fanlari doktori, Katta ilmiy xodim.

Xodjaev Nodir – Texnika fanlari nomzodi, dotsent.

Yusupov Jaloliddin Rasuljonovich – Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Karimov Rahmat Rahmanovich – Falsafa fanlari nomzodi, Professor.

Saidova Kamola Uskanbayevna – Falsafa fanlari doktori, professor.

Chay Zoya Sergeevna – Fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent.

Rahimova Yayra Mahmudovna – Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Rajabova Zuhra Sadullaevna – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Abdullaev Nuraddin Kuranbaevich – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD

«ActaEducation» elektron jurnali
Guvohnoma raqami №122187

ISSN 3030-3141

Founder: **Tashkent International University of Education**

Editorial board address: Imam Bukhari str. 31, Tuzel-2, Yashnabad district, Tashkent 100207, Uzbekistan

www.actaeducation.uz

actaeducation@tiue.uz

The electronic journal «ActaEducation» has a certificate No. 122187

ISSN 3030-3141

Ta'sischi: **Tashkent International University of Education**

Tahririyat manzili: 100207 O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Yashnabad tumani, Tuzel-2, Imom Buxoriy ko'chasi 31.

www.actaeducation.uz

actaeducation@tiue.uz

Электронный журнал «ActaEducation» имеет сертификат №122187

ISSN 3030-3141

Учредитель: **Tashkent International University of Education**

Адрес Редакции: 100207 Республика Узбекистан, г.Ташкент, Яшнабадский район, Тузель-2, ул. Имама Бухари 31.

www.actaeducation.uz

actaeducation@tiue.uz

MUNDARIJA / CONTENTS

Диэлектрическая проницаемость композиционных полимерных материалов на основе полиэтилена содержащих наночастицы меди	4
Dielectric permittivity of composite polymer materials based on polyethylene containing copper nanoparticles	4
Integrating corpus and discourse approaches to analyze terminological collocations in english and uzbek: a comparative study	9
Особенности управления образовательными учреждениями в Великобритании: теоретические и практические аспекты	13
Features of the management of educational institutions in the UK: theoretical and practical aspects	13
Turkiston jadidlari ta'lim islohotining ba'zi masalalari	19
Some issues of educational reform by Turkestan Jadids	19
Основные принципы системного подхода к организации образовательно-воспитательной деятельности госпитальной школы	23
The basic principles of a systematic approach to the organization of educational activities of a hospital school	23
Boshqaruv samaradiligini oshirishda ta'lim texnologiyalarining roli	27
The role of educational technologies in improving management effectiveness	27
Innovative strategies for enhancing the pedagogical competence of Russian language teachers	31
Psixodiagnostika metodikalari ilmiyligining psixometrika mezonlarini ta'minlash jarayonini optimallashtirishning ahamiyati	33
The importance of optimizing the process of ensuring the psychometric criteria of the scientificity of psychodiagnostic methodologies	33
Специфика управления персоналом в современных образовательных учреждениях	37
The specifics of personnel management in modern educational institutions	37

Boshqaruv samaradoligini oshirishda ta'lim texnologiyalarining roli

Amonova Nodira Abduxamidovna

Tashkent International University of Education, Tashkent, Uzbekistan

E-mail: nodiraamonova815@gmail.com

Citation: N.Amonova. The role of educational technologies in improving management effectiveness. Acta Education (2025) 2(1) 27–30. DOI: <https://doi.org/10.61587/3030-3141-2025-2-1-30-35>.

Corresponding authors:

N.Amonova

nodiraamonova815@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim texnologiyalarining boshqaruvdagi ahamiyati, hozirgi kundagi holati, boshqaruv samaradorligini oshirishda joriy etilgan ta'lim texnologiyalari to'g'risida xorij tajribasi, ta'lim texnologiyalarining boshqaruv samaradorligiga ta'siri, ularning foydalanish usullari va samaradorligini oshirishdagi ahamiyati chuqur tahlil qilib o'rganilgan. Boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari va uning afzalliklari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Boshqaruvda ta'lim texnologiyalarni qo'llash va ularning samaradorligini baholash imkoniyatlari nazariy jihatidan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim texnologiyalari, boshqaruv, boshqaruv faoliyati, samaradorlik, ta'lim metodlari, raqobat, kasbiy rivojlanish.

The role of educational technologies in improving management effectiveness

Amonova Nodira Abdukhamidovna

Tashkent International University of Education, Tashkent, Uzbekistan

E-mail: nodiraamonova815@gmail.com

Abstract. This article thoroughly analyzes the significance of educational technologies in management, their current state, foreign experience in implementing educational technologies to improve management effectiveness, the impact of educational technologies on management effectiveness, methods of their use, and their significance in improving efficiency. The possibilities of using educational technologies in increasing the effectiveness of management activities and its advantages have been scientifically investigated. The possibilities of applying educational technologies in management and assessing their effectiveness are theoretically highlighted.

Keywords: educational technologies, management, managerial activity, effectiveness, teaching methods, competition, professional development.

Funding source for publication: Tashkent International University of Education.

Publisher's

Note:

ActaEducation stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.



Copyright: © 2023 by the authors. Licensee ActaEducation, Tashkent, Uzbekistan. This article is an open access article distributed under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY-NC-ND) license (<https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/>).

Kirish

Boshqaruv samaradorligi — har qanday tashkilotning muvaffaqiyati uchun muhim omil. Bu boshqaruv tizimlarining resurslarni optimal tarzda ishlatish va maqsadlarga erishish darajasi. Samarali boshqaruv, birinchi navbatda, qaror qabul qilish, resurslarni boshqarish va jamoaviy ish faoliyatini ta'minlashda ahamiyatlidir. Ta'lim texnologiyalari esa, o'qish, o'rganish va rivojlanish jarayonlarini boshqarishda qo'llaniladigan zamonaviy vositalar va metodologiyalarni anglatadi. Bularga elektron o'quv platformalari,

simulyatsiyalar, masofaviy treninglar va boshqalar kiradi.

Zamonaviy dunyoda, ta'lim texnologiyalari boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Tashkilot samaradorligini ta'minlash jarayonida vaziyatli yondashuvni qo'llash hozirgi kunda muvaffaqiyat va samaradorlikni ta'minlashga asos bo'ladi. Umuman samaradorlikning tub negizini unumdorlik tashkil qiladi.

Tashkilot muvaffaqiyatini uning ishlab chiqarish faoliyati va boshqaruv faoliyatining natijaliligi, samaradorlikni

o'shishga intilishi tashkil qiladi. Piter Druker fikriga ko'ra "Natijalilik to'g'ri narsalar qilinishining oqibatidir; samaradorlik esa shu narsalarni to'g'ri yaratilishining natijasidir".

Agarda boshqaruv faoliyatining natijalari jamoa faoliyatining natijalari bilan mos tushishini hisobga olsak, bu holda boshqaruv jarayonining samaradorligi - bu juda murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy-iqtisodiy toifa ekanligi ma'lum bo'ladi. U o'z ichiga boshqaruvning barcha jihatlarini oladi, shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, marketing, texnologik va boshqa munosabatlar samarasiga bog'liq bo'ldi. Boshqaruvning har qanday bo'g'ini uchun xos bo'lgan hamda samaradorlikni ifoda etuvchi tushunchalar:

- xodimlarning mehnati samaradorligi;
- boshqaruv apparati, uning turli bo'g'inlari va bosqichlari faoliyatining samaradorligi;
- aniq qaror ishlab chiqish va uni amalga oshirish jarayonidagi boshqaruv jarayonining samaradorligi;
- boshqaruv ierarxiyasidan kelib chiqib hamda ishchi-xodimlarni boshqaruvda ishtiroki darajasiga bog'liq boshqaruv tizimining samaradorligi;
- boshqaruv mexanizmining, ya'ni boshqaruv usullari, uslubi va shakllarining samaradorligidan iborat bo'ladi.

Zamonaviy boshqaruvda ta'lim texnologiyalardan foydalanish boshqaruv faoliyati samaradorligini oshiribgina qolmay, balki uning shaffofligi, sifatini oshirish va tashkilot salohiyatini, kadrlar bilim va malakalarini oshirishiga ham imkoniyat yaratishi mumkin.

Boshqaruv samaradorligini oshirishda kadrlarni qayta tayyorlash, malakasini oshirishda zamonaviy o'qitish uslublari va texnologiyalari muhim o'rin tutadi, ular nafaqat fan bilimlarini egallashga, balki amaliyotga yo'naltirilgan ko'nikmalarni, ijodiy va tanqidiy fikrlashni, o'z-o'zini rivojlantirishga ham hissa qo'shishi mumkin. Zamonaviy boshqaruv xodimlari uchun murakkab muammolarni hal qilish, mumkin bo'lgan alternativlarni topish va oqilona qarorlar qabul qilish uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muhimdir. Shu bilan birga, ijodiy fikrlash ham muhim bo'lib, bu xodimlarning notanish muhitga tezroq moslashish qobiliyatiga, ilg'or g'oyalar va innovatsion loyihalarni ilgari surish qobiliyatiga, tavakkal qilish va mas'uliyatli bo'lishga ijobiy ta'sir qiladi.

Adabiyotlar sharhi va metodologiya

Boshqaruv samaradorligini oshirishda ta'lim texnologiyalarining ahamiyati, metod va usullaridan foydalanish muhimligi, nazariy asoslari G.G.

Moiseev, D.Ya. Silantev, N.M. Voskresenskaya, V.A. Chikalkin, A.V. Ilin, Ye.V. Chesnokova, V.N. Ipatov kabi xorijlik yetuk olimlarning ilmiy tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan. Ye.V. Chesnokova o'z tadqiqotlarida axborot texnologiyalarini boshqaruv samaradorligini oshirishda qo'llash, xususan, intellektual tizimlar va avtomatlashtirilgan boshqaruv qarorlari kabi instrumentlarni ko'rsatadi. Ta'lim texnologiyalarining bu turi, boshqaruvchilarga qarorlar qabul qilishda tezkorlik va samaradorlikni oshirishga yordam beradi. V.N. Ipatovning nazariyasida ta'lim texnologiyalarining kadrlar tayyorlash va rivojlantirishdagi ahamiyatiga to'xtaladi. Ta'limning samarali usullari, jumladan, treninglar, seminarlar va master-klaslar, boshqaruvchilarga innovatsion yondoshuvlarni qo'llashda zarur bo'lgan bilimlarni berib, ularning ish samaradorligini oshiradi. V.A. Chikalkin o'z izlanishlarida ta'lim texnologiyalarining boshqaruv sohasidagi ahamiyatiga to'xtalib, zamonaviy boshqaruv strategiyalarini qo'llashda talab etiladigan bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirishda interaktiv ta'lim, holat o'rganish, kompyuter yordamida o'rganish (e-learning) usullarining ahamiyatini tushuntiradi. A.V. Ilin esa ta'lim texnologiyalarining ishlab chiqarish va boshqaruv sohasidagi samaradorlikni oshirishga ta'siri haqida gapiradi. U ta'limning ko'p tomonlama vositalaridan foydalanish (vebinarlar, onlayn kurslar va treninglar) boshqaruvchilarning faoliyatini yangilash va modernizatsiya qilishga ko'maklashishini ta'kidlaydi. N.M. Voskresenskaya ta'lim texnologiyalari, shu jumladan, distansion ta'lim va elektron ta'lim platformalarini ishlab chiqish va qo'llashning boshqaruv samaradorligini oshirishdagi ahamiyatiga e'tibor qaratadi. Muallif ta'limning interaktiv yo'nalishlari va pedagogik texnologiyalarning zamonaviy talablarga mos kelishi, boshqaruvchi xodimlarning bilim va malakalarini oshirishda samarali natija beradi, deb hisoblaydi. G.G. Moiseev o'zining "Korporativ ta'lim va boshqaruv samaradorligi" nomli asarida ta'limning boshqaruv samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ta'riflaydi. Muallifning ta'kidlashicha, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, xususan, kompyuterlashtirilgan ta'lim tizimlari va interaktiv o'qitish metodlari, tashkilotlarning xodimlarini zamonaviy boshqaruv texnika va strategiyalari bilan tanishtiradi, bu esa ish faoliyatida yangi yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. D.Ya. Silantev boshqaruv samaradorligini oshirish uchun ta'limning ahamiyatini o'z tadqiqotlarida ko'rsatadi. U ta'limning ishlab chiqarish va boshqaruv sohasidagi samaradorlikni oshirishga katta ta'sir ko'rsatishini, jumladan, xodimlar malakasini yaxshilash uchun zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish

zarurligini ta'kidlaydi.

Boshqaruv samaradorligini oshirishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, metod va usullarni qo'llash hozirgi kunda sezilarli darajada rivojlanmoqda. Boshqaruv samaradorligini oshirishda kadrlarni rivojlantirish uchun bir necha ta'lim texnologiyalaridan foydalanish samarali boshqaruvni ta'minlash, xodimlarning malakasini oshirish va tashkilotning umumiy samaradorligini yaxshilashga yordam beradi. Boshqaruv samaradorligini oshirishda rivojlangan davlatlarda qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari turli xil usullar va metodlarni o'z ichiga oladi. Ushbu texnologiyalar samaradorlikni oshirish, kadrlarni rivojlantirish va tashkilotlarning strategik maqsadlariga erishish uchun muhim ahamiyatga ega.

Mazkur maqolada boshqaruv faoliyatida ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va bu orqali boshqaruv faoliyati samaradorligini yanada oshirish, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ishlar, bu borada xorij tajribasi atroflicha tahlil qilingan. Tahlil jarayonida ilmiy abstraksiyalash, ekspert baholash, induksiya va deduksiya, taqqoslash, tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama

Ta'lim texnologiyalarini joriy etish va ulardan boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirishda jahondagi rivojlangan davlatlar tajribasini ilmiy jihatdan o'rganish va uni mamlakatimizda joriy etish imkoniyatlarini baholash uchun quyida bu faoliyat bo'yicha namuna bo'la oluvchi davlatlar tajribasini tahlil qilib, o'rganib chiqamiz.

Rossiya Federatsiyasining boshqaruv samaradorligini oshirishda ta'lim texnologiyalarining ahamiyati katta. Zamonaviy ta'lim metodlari va texnologiyalari, jumladan, distansion ta'lim, onlayn kurslar, interaktiv treninglar, simulyatsiyalar va kompyuterlashtirilgan ta'lim, boshqaruvchilarga zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish va ish faoliyatini samarali boshqarish imkoniyatini beradi. Rossiyada ommaviy onlayn ta'lim platformalari, jumladan, "Uchi.ru" va "Coursera Rossiya", RUDN va MDU onlayn ta'lim platformalari platformalarida boshqaruv samaradorligini oshirish uchun simulyatsiyalar va holatlarni o'rganish, xodimlarning boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish uchun interaktiv treninglar va simulyatsiyalardan foydalaniladi.

Yaponiyada yosh boshqaruvchilar va rahbarlar uchun onlayn kurslar, vebinarlar va treninglar yordamida malakalarini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu ularga ishlab chiqarish va boshqaruvda samarali qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Yangi bilimlar va ko'nikmalarni

jadval o'rganish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, mehnat resurslaridan samarali foydalanish, raqobatbardoshlikni oshirish ko'zda tutilgan.

Germaniya ta'lim sohasida yuqori rivojlangan texnologiyalarni joriy qilishda anchagina muvaffaqiyatga erishgan. Ta'lim texnologiyalarining asosiy vazifasi, rahbarlarning va ishchilarning malakasini oshirish, innovatsion boshqaruv usullarini o'rganish va boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishdan iborat.

Germaniyada rahbarlarning professional rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun Germaniyada ishlab chiqarish va boshqaruv sohasidagi zamonaviy ta'lim texnologiyalari rahbarlar uchun professional rivojlanish va zamonaviy boshqaruv usullarini o'zlashtirishda onlayn kurslar va vebinarlar tashkil etiladi.

Bunda kadrlarning bilimlarini tizimli ravishda oshirishda muvaffaqiyatga erishish, Onlayn ta'lim, virtual treninglar va simulyatsiyalar orqali ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va ish samaradorligini oshirishda aniq natijalarga erishish, ta'lim texnologiyalari orqali kompaniyalar yangi innovatsion strategiyalarni ishlab chiqib, raqobatbardoshlikni oshirishga yo'naltirishadi. Ushbu usullar, jumladan, virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR), boshqaruv strategiyalarini rivojlantirishga yordam berish natijalariga erishiladi.

Boshqaruv samaradorligini oshirishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish sifatini ko'rib chiqish, shuningdek, ehtiyojlarni tahlil qilish va samaradorlik va natijaviylikni oshirish ehtiyojlarni tahlil qilish va bunday ehtiyojlarni qondirish uchun ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari va cheklovlarini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, boshqaruv samaradorligini oshirishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish muhimligi sabablari sifatida quyidagilarni ko'rib chiqish taklif etiladi:

Yangi bilimlar va ko'nikmalarni tez va samarali o'rganish - Ta'lim texnologiyalari, ayniqsa onlayn platforma va interaktiv treninglar, rahbarlarga va ishchilarga yangi bilimlarni tez va samarali o'zlashtirish imkonini beradi.

Ish samaradorligini oshirish - Boshqaruv samaradorligini oshirishda ta'lim texnologiyalari ish jarayonlarini optimallashtirishga yordam beradi. Zamonaviy trenajorlar, simulyatsiyalar va boshqa interaktiv vositalar ishchilarning qarorlar qabul qilish va murakkab vaziyatlarda har qadamni aniq va to'g'ri bajarish qobiliyatlarini oshiradi.

Innovatsion boshqaruv usullarini qo'llash - rahbarlarga zamonaviy boshqaruv usullarini o'rganish va amalga oshirishda yordam beradi. Bu usullar o'zgarib borayotgan bozor sharoitlariga moslashish va raqobatbardoshlikni saqlash uchun muhimdir.

Qaror qabul qilish jarayonlarini yaxshilash - rahbarlar va ishchilar real holatlarda qarorlar qabul qilishga qaratilgan treninglar otadilar.

Jamoaviy ishlash va liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish- Interaktiv treninglar, virtual platformalar va holatlar asosida amaliy mashg'ulotlar olib borish liderlar va ishchilarning o'zlarining jamoa ishi va kommunikatsiyadagi ko'nikmalarini mustahkamlashga imkoniyat yaratadi.

Internet va onlayn resurslardan foydalanish- Onlayn ta'lim platformalari va internet-texnologiyalarining rivoji boshqaruvchilarga va ishchilarga samarali va qulay usulda ta'lim olish, yangi tendensiyalar bilan tanishish imkonini beradi.

Ta'lim jarayonini avtomatlashtirish - Avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish orqali ta'lim jarayonlarini osonlashtirish va tezlashtirishga erishiladi.

Ishchilarning motivatsiyasini oshirish- ishchilarni doimiy ravishda o'qitish va ularning professional rivojlanishini ta'minlash orqali motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Zamonaviy ta'lim vositalari, bundan tashqari, ishchilarning qiziqishini yanada oshirishga va ularning shaxsiy va professional hududda o'sishlarini ta'minlashga yordam beradi.

Xulosa

Zamonaviy boshqaruv jarayonlarini samarali olib borish va amaliyotga joriy etish uchun xorijiy tajriba hamda ilmiy adabiyotlar tahlil o'rganilib quyidagi takliflar ishlab chiqiladi:

- Distansion ta'limni keng joriy etish
- Interaktiv ta'lim metodlarini joriy qilish
- Texnologiyalar orqali malaka oshirish va professional rivojlanish
- Dasturiy ta'minot va avtomatlashtirish jarayonlarini taqdim etish
- Raqobatbardoshlikka yordam beruvchi ta'lim usullarini joriy qilish
- Xodimlarning shaxsiy va jamoaviy rivojlanishiga yo'naltirilgan ta'lim
- Kadrlarning innovatsion bilimlar bilan ta'minlanishini ta'minlash
- Ta'lim texnologiyalarining samaradorligini baholash va monitoringini olib borish
- Ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda

individual yondashuvni rag'batlantirish

- Innovatsion ta'lim usullarini doimiy o'rganish va takomillashtirish.

Ushbu takliflarni qo'llash orqali ish samaradorligini yuqori darajaga ko'tarish, xodimlarning professional rivojlanishini ta'minlash, zamonaviy boshqaruv va strategiyalarni tadbqiq qilish, jamoaviy ishlashdagi ko'nikmalarni rivojlantirish va innovatsion bilimlarni olishga erishiladi.

Adabiyotlar / References

1. Abdurahmonova Sh. Boshqaruvda zamonaviy ta'lim texnologiyalari va ularning samaradorligi. Toshkent: "Mehnat". 2020.
2. Mirzaev A. Interaktiv ta'lim texnologiyalari va ularning tashkilotlar boshqaruvidagi rollari. Toshkent: "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Iqtisodiy tadqiqotlar markazi". 2021.
3. Rahimov S. Boshqaruv va ta'lim: Zamonaviy yondashuvlar. Toshkent: "Huquq va Qonun" nashriyoti. 2018.
4. Pirimov D. Internet platformalari va boshqaruv samaradorligi. Toshkent: "Akademiya" nashriyoti. 2021.
5. Моисеев Г.Г. Корпоративное обучение и эффективность управления. Москва, 2005.
6. Силантев Д.Я. Обучение для повышения эффективности управления. Москва, 2011.
7. Воскресенская Н.М. Инновационные методы в современном образовании. Москва, 2007.
8. Чикалкин В.А. Образовательные технологии и современное управление. Москва, 2010.
9. Илин А.В. Разработка образовательных технологий и эффективность управления. Москва, 2013.
10. Поршнева А.Г. и др. Управление организацией. Москва, 2008.
11. Djonson, E. (2020). The Role of Education Technology in Enhancing Management Efficiency. *Journal of Business Education*, 45(2), 25-38.
12. Teylor, R. (2019). Technological Advancements in Education and Their Impact on Organizational Management. *International Journal of Educational Technology*, 12(4), 43-56.
13. Garsiya, L. (2021). Enhancing Organizational Leadership through Educational Technologies. *International Business and Leadership Review*, 34(1), 12-29.
14. Klark, M., va Beyker, P. (2018). The Impact of Educational Technologies on Management Training Programs. *Management Development Review*, 16(3), 78-91.
15. Shmidt, K. (2017). The Effectiveness of Virtual Simulations for Management Education. *Journal of Business Simulation*, 8(2), 56-67.
16. Rey, V. (2020). Interactive Learning in Management: The Future of Education Technologies. *Journal of Organizational Behavior*, 29(5), 50-65.
17. Xansson, M., va Lund, G. (2018). The Role of E-Learning in Management Development. *Journal of Business and Educational Research*, 15(3), 40-53.